

## Sayyor qabul o'tkazdi

Joriy yilning 20-noyabr kuni Qashqadaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i 3-sektor rahbari polkovnik Shuhratjon Satvoldiev fuqarolarning kundalik va maishiy muammolarini o'rganish, aholi bandligini ta'minlash maqsadida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qarshi filialida sayyor qabul o'tkazdi. Unda Xalq qabulxonasi viloyat bo'limi va Qarshi shahridagi 4 ta sektor hamda mutasaddi tashkilotlar rahbarlari va 3-sektor ishchi guruhi 62 nafar fuqarolar nuroniylar, faollar va oqsoqollar ishtirok etdi. Sayyor qabulda shaharda istiqomat qilayotgan fuqarolarni qiynayotgan muammolar bo'yicha 26 ta murojaatlar tinglandi. Murojaatlarning 8 tasi joyida hal etildi. 14 nafar fuqaroga huquqiy tushuntirishlar berildi. Mablag' va vaqt talab etadigan 14 ta murojaat nazoratga olinib, yechimini topish bo'yicha tegishli mutasaddilarga topshiriqlar berildi. Yig'ilish yakunida ikki nafar fuqaroga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi pasporti topshirildi.



TIQXMMI matbuot xizmati